

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA AN'ANAVIY IJRO MASHQLARI BILAN ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH.

Ergashev Ibrohimjon Qodirjon o'g'li

Namangan shahar 18-maktab musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida an'anaviy ijro mashqlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tajribasi yoritilgan. O'quvchilarga milliy cholg'ularni o'rgatishda ritm, ohang va musiqa savodiga oid muammolarni bartaraf etishda mobil ilovalar, audio-video yozuvlar va nota vizualizatsiyasidan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning ijrochilik mahorati va mustaqil mashq qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.*

Kalit so'zlar: *musiqa madaniyati, milliy cholg'ular, an'anaviy mashq, raqamli texnologiya, ritm, musiqa savodi.*

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ УПРАЖНЕНИЙ С СОВРЕМЕННЫМИ ЦИФРОВЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ.

Аннотация: *В статье рассматривается опыт интеграции традиционных исполнительских упражнений и современных цифровых технологий на уроках музыкальной культуры. Анализируется эффективность использования мобильных приложений, аудио- и видеозаписей, а также визуализации нот для устранения проблем, связанных с ритмом, мелодией и музыкальной грамотностью учащихся при обучении игре на национальных инструментах. Результаты исследования показывают, что интегрированный подход значительно развивает исполнительское мастерство и навыки самостоятельной практики школьников.*

Ключевые слова: *музыкальная культура, национальные инструменты, традиционные упражнения, цифровые технологии, ритм, музыкальная грамотность*

INTEGRATION OF TRADITIONAL PERFORMANCE EXERCISES WITH MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN MUSIC CULTURE LESSONS.

Abstract: *This article explores the integration of traditional performance exercises and modern digital technologies in music culture classes. The study analyzes the effectiveness of using mobile applications, audio-video recordings, and note visualization to overcome challenges related to rhythm, melody, and music literacy in teaching*

national instruments. The results indicate that the integrated approach significantly enhances students' performance skills and independent practice abilities.

Keywords: *music culture, national instruments, traditional exercises, digital technologies, rhythm, music literacy*

Bugungi globalashuv davrida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar, estetik did va badiiy tafakkur ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Milliy cholg'ularimizni o'rganish nafaqat ijrochilik mahoratini rivojlantirish, balki yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ularda milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy mashqlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu hujjatda belgilangan vazifalar musiqa ta'limini ham zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga mobil ilovalar, audio-video vositalar va onlayn platformalarni joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, musiqa madaniyati darslarida kuylarni nafaqat og'zaki-amaliy mashq tarzida, balki raqamli texnologiyalar yordamida o'rgatish ijrochilikdagi muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. Bunda o'quvchi kuy ohangini vizual va eshitish orqali tahlil qiladi, natijada ritm, texnika va musiqa savodi yanada rivojlanadi.

Shu jihatdan, an'anaviy ijro mashqlari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish musiqa ta'limida innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida musiqa madaniyati darslarida an'anaviy ijro mashqlari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish asosiy metodik yo'nalish sifatida qo'llandi. Tadqiqot ob'ekti sifatida umumta'lim maktabida rubob, dutor va nay cholg'ularini o'rganuvchi o'quvchilar tanlandi.

Metodik jarayon uch bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda o'quvchilarga kuylarni an'anaviy tarzda – og'zaki va amaliy mashqlar orqali o'rgatish yo'lga qo'yildi. Bu bosqichda asosiy e'tibor cholg'u ijrosidagi texnik ko'nikmalarni shakllantirish, ritmni his etish va ohangni aniqlik bilan chalishga qaratildi.

Ikkinchi bosqichda raqamli texnologiyalar joriy qilindi. O'qituvchi dars jarayonida ijro etilgan kuylarni mobil ilova orqali nota shakliga keltirdi, kuylarning audio va video yozuvlari tayyorlandi. O'quvchilar esa uy sharoitida ushbu ilovalar yordamida mustaqil mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ilova kuylarni avtomatik ijro qilib berishi natijasida o'quvchilar ritm va ohangni taqqoslash, xatolarini aniqlash imkoniga ega bo'lishdi. Shuningdek, video yozuvlar orqali kuylarning nota belgilarini vizual ko'rish va ularni amaliy ijro bilan bog'lash metodikasi qo'llanildi.

Uchinchi bosqichda o'quvchilarning rivojlanishi tahlil qilindi. Baholash mezonlari sifatida kuy ijrosidagi ritmga rioya qilish, ohangning aniqligi, texnik malaka darajasi va musiqa savodi (nota belgilarini tushunish) olindi. O'quvchilarning ijro yozuvlari o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, natijalar an'anaviy va raqamli metodlarning uyg'unlashuvi samaradorligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot metodlari an'anaviy ta'lim usullarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratildi.

Tadqiqot jarayonida an'anaviy ijro mashqlari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirishning samaradorligi o'quvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishida kuzatildi. Avvalgi bosqichlarda o'quvchilar ritmni saqlashda, ohangni aniq ijro etishda va nota savodida qator qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsalar, integratsiyalashgan metod qo'llanilgach, ushbu muammolarda sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi.

Birinchiidan, ritmni o'zlashtirishda sezilarli natija qayd etildi. Mobil ilova va audio yozuvlar yordamida mashq qilgan o'quvchilar kuylarni aniqroq ijro eta boshladilar, ritmdan chiqib ketish holatlari kamaydi.

Ikkinchiidan, ohangning aniqligi oshdi. O'quvchilar o'z ijrolarini video yozuv orqali ko'rib, o'qituvchi bergan namunaviy ijro bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirdi va ohangni to'g'ri ijro etishga yordam berdi.

Uchinchiidan, musiqa savodida sezilarli o'sish kuzatildi. Nota belgilarini to'liq bilmagan o'quvchilar ham vizual ko'rgazmalar orqali qaysi nota qaysi tovushga mos kelishini anglab bordilar. Natijada, kuylarni nazariy bilim bilan amaliy ijro bog'lanishida yutuqlarga erishildi.

To'rtinchidan, mustaqil mashq qilish ko'nikmasi rivojlandi. O'quvchilar uy sharoitida ilova va video yozuvlardan foydalanib, o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa darsdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini oshirdi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashqlar bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish o'quvchilarning ijrochilik mahoratini, musiqiy savodxonligini va mustaqil o'rganish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu yondashuv musiqa madaniyati darslarida innovatsion metod sifatida o'zini to'liq oqladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqa madaniyati darslarida an'anaviy ijro mashqlari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning musiqiy rivojlanishida samarali natija beradi. Ushbu yondashuv bir vaqtning o'zida ikki muhim jihatni ta'minladi: birinchidan, o'quvchilar milliy cholg'ularni an'anaviy tarzda o'rganishda davom etdilar, ikkinchidan esa, raqamli texnologiyalar ularning ritm, ohang va musiqa savodidagi kamchiliklarini tezroq bartaraf etishga xizmat qildi.

Muhokama jarayonida bir necha ustunliklar qayd etildi. Avvalo, mobil ilovalar va audio-video yozuvlardan foydalanish o'quvchilarga darsdan tashqari mustaqil mashq qilish imkonini berdi. Bu o'z navbatida ijrochilik mahoratini rivojlantirishda sezilarli yordam ko'rsatdi. Shuningdek, video yozuvlar orqali o'z ijrosini ko'rgan o'quvchi xatolarini tezda anglab, tahlil qila oldi. Bu esa o'z-o'zini nazorat qilish va tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishga olib keldi.

Biroq, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ba'zi o'quvchilarda shaxsiy cholg'u asbobining yo'qligi mashqlarni uy sharoitida davom ettirish imkonini chekladi. Shuningdek, texnik vositalardan samarali foydalanish uchun o'quvchi va o'qituvchidan qo'shimcha ko'nikmalar talab qilinishi aniqlangan. Shu bilan birga, o'quvchilarning tez charchashi yoki diqqatini uzoq vaqt jamlay olmasligi ham jarayonga ta'sir ko'rsatdi.

Shunday bo'lsa-da, an'anaviy mashqlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi umumiy o'quv jarayonida innovatsion yondashuv sifatida o'zini oqladi. Bu metod o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytirish, ijrochilik texnikasini rivojlantirish va milliy cholg'ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quvchilarda o'zbek xalq cholg'ulari, xususan, qashqar rubobi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarning musiqiy savodxonligi, ritmik sezgirligi, ijrochilik malakasi hamda milliy musiqaga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu esa innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini ta'minlash mumkinligini amalda ko'rsatdi.

Xususan, interfaol metodlar, multimediali vositalar va noan'anaviy yondashuvlar orqali o'quvchilarda milliy cholg'ularni o'rganishga bo'lgan motivatsiya kuchaydi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, an'anaviy dars shakllari bilan taqqoslaganda, yangicha metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va musiqiy asarlarni ongli ravishda idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'ldi. Shu bilan birga, qashqar rubobi orqali musiqiy ijrochilikni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning estetik didi, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmati va badiiy tafakkuri mustahkamlandi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar duch keladigan ayrim muammolar, masalan, murakkab ritmik shakllar, ohangni to'g'ri chalishdagi qiyinchiliklar va nota savodida xatoliklar aniqlanib, ularni bosqichma-bosqich yengib o'tishga qaratilgan metodik

tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar ta'lim jarayonida qo'llanilganda o'quvchilarning musiqiy rivoji sezilarli darajada tezlashdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur ish natijalari nafaqat musiqiy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda, balki milliy musiqiy merosni asrash va kelajak avlodga yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot boshqa xalq cholg'ularini o'rganish metodikasini ishlab chiqishda ham nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLARI RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Musiqqa va san'at ta'limini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2017 yil 17 noyabr, PQ-3391.
2. Ergashev I. I. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda o'zbek xalq cholg'ulari haqidagi bilimlarini shakllantirish // Asian Journal of Education and Research. – 2024. – №10(24). – B. 74-78. – URL: https://ajeruz.com/files/upload/articles/2024-10-24-17-17-38_ac66e4678a0cf3c12db67c59abc02c44.pdf.
3. Jo'rayev, A. M. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
4. Rasulova, D. Musiqqa ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 180 b.
5. Abdurahmonov, A. O'zbek xalq musiqasi va uning pedagogik ahamiyati. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2021. – 212 b.
6. Karimova, S. Musiqqa pedagogikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 198 b.
7. Xasanov, B. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 220 b.
8. Qodirov, M. Milliy qadriyatlar va musiqqa tarbiyasi. ☐ Toshkent: Ma☐naviyat, 2017. ☐ 175 b.
9. Saidov, N. Musiqqa ta'limida interfaol metodlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 164 b.
10. UNESCO. Traditional Music and Instruments of Central Asia: Pedagogical Approaches. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 132 p.